

O'ZBEKİSTON
TIL VA MADANIYAT

ISSN 2181-922X

UZBEKİSTAN LANGUAGE & CULTURE

2024 Vol. 2

www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz

ISSN 2181-922X

O'ZBEKISTON: TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN: LANGUAGE AND CULTURE

2024 Vol. 2

www.navoiy-uni.uz

www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov

Bosh muharrir o'rincbosari: Nodir Jo'raqo'ziyev

Mas'ul kotib: Ozoda Tojiboyeva

Tahrir kengashi

Hamidulla Dadaboyev, Mustafo Bafoyev, Samixon Ashirboyev, Shodmon Vohidov (Tojikiston), Qozoqboy Yo'ldoshev, Farxod Maqsudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Almaz Ülvi (Ozarbayjon), Shamsiddin Kamoliddin, Roza Niyozenmetova, Aftondil Erkinov, Uzoq Jo'raqulov, Sulton Normamatov, Dilnavoz Yusupova, Dilorom Ashurova, Nozliya Normurodova, Odinaxon Jamoldinova, Ziyoda Teshaboyeva.

Tahrir hay'ati

Nazef Shahrani (AQSH)	Abdulaziz Mansur (O'zbekiston)
Elizabetta Ragagnin (Italiya)	Timur Xo'jao'g'li (AQSH)
Ahmadali Asqarov (O'zbekiston)	Tanju Seyhan (Turkiya)
Isa Habibbeyli (Ozarbayjon)	Xisao Komatsu (Yaponiya)
Akmal Nur (O'zbekiston)	Alizoda Saidumar (Tojikiston)
Akrom Habibullayev (AQSH)	Nikolas Kantovas (Buyuk Britaniya)
Bahtiyar Aslan (Turkiya)	Akmal Saidov (O'zbekiston)
Emek Üşenmez (Turkiya)	Mark Toutant (Fransiya)

"O'zbekiston: til va madaniyat" jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzularagi babs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiylar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navoi Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief: Shuhrat Sirojiddinov

Deputy Editor in Chief: Nodir Jurakuziev

Executive secretary: Ozoda Tajibaeva

Editorial board

Hamidulla Dadaboev, Mustafo Bafoev, Samikhan Ashirboev, Shodmon Vohidov (Tajikistan), Qozoqboy Yuldashev, Farhad Maksudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Almaz Ülvi (Azerbaijan), Shamsiddin Kamoliddin, Roza Niyoziyeva, Aftondil Erkinov, Uzoq Jurakulov, Sulton Normamatov, Dilnavoz Yusupova, Dilorom Ashurova, Nozliya Normurodova, Odinakhan Jamoldinova, Ziyoda Teshabaeva.

Editorial Committee

Nazif Shahrani (USA)	Abdulaziz Mansur (Uzbekistan)
Elisabetta Ragagnin (Italy)	Timur Kozhaoglu (USA)
Ahmadali Asqarov (Uzbekistan)	Tanju Seyhan (Turkey)
Isa Habibbeyli (Azerbaijan)	Hisao Komatsu (Japan)
Akmal Nur (Uzbekistan)	Alizoda Saidumar (Tajikistan)
Akrom Habibullaev (USA)	Nicholas Kontovas (Great Britain)
Bahtiyar Aslan (Turkey)	Akmal Saidov (Uzbekistan)
Emek Üşenmez (Turkey)	Marc Toutant (France)

"Uzbekistan: Language and Culture" is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navoi Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

MUNDARIJA

Lingvistika

Samixon Ashirboyev, Janat Aymuhambet

Turkiy til strukturasi mahalliy ziyolilar talqinida.....6

Munavvara Qurbanova

Bolalar nutqiga xos illokutiv aktlarning semantik tasnifi.....18

Gulnoraxon Niyazova

Detektiv fantastikadagi pragmatik moslashuv.....32

Afag Gemberova, Gulgun Huseynli

Tilshunoslikda yangi fundamental tushuncha:

"Dunyoning til manzarasi.....56

Jumanazar O'rozov

Sud-tergov jarayoni bilan bog'liq yozma matnlarning identifikatsion
lingvistik belgilari xususida.....68

Sanjar Islomov

Milliy va anglosakson ilmiy kontekstlarida lingvokulturologiya.....83

Kamaraddin Davletov

Olamning hissiy-konseptual manzarasi, hissiyotlar va qo'rquv
konsepti.....106

Adabiyotshunoslik

Shahlo Hojiyeva

Sharq-u G'arb ma'rifatchilik adabiyotining uyg'unligi va o'ziga
xosligi.....120

Oynisa Hojiyeva

Ozbek - Türk Atasözlerinin Karşılaştırmalı Analizi.....138

CONTENT

Linguistics

Samikhan Ashirbaev, Janat Aymuhambet

Turkish Language Structure in the Interpretation of Local Intellectuals.6

Munavvara Kurbonova

Semantic classification of illocutionary acts Characteristic of Children's.....18

Gulnorakhon Niyazova

Pragmatic Adaptation in Detective Fiction.....32

Afag Gemberova, Gulgun Huseynli

A new Fundamental Concept in linguistics: "Language Landscape of the World".....56

Jumanazar Urozov

On the identification Marks of Manuscript Texts Relating to the Judicial Process.....68

Sanjar Islomov

Linguoculturology in National and Anglo-Saxon scientific contexts. Comparative analysis.....83

Kamaraddin Davletov

Emotional-conceptual picture of the world, emotions and the Concept of Fear.....106

Literature

Shahlo Hojiyeva

The Harmony and Uniqueness of the Literature of the East-West Enlightenment.....120

Oynisa Hojieva

Comparative Analysis of Uzbek - Turkish Proverbs.....138

Sud-tergov jarayoni bilan bog'liq yozma matnlarning identifikatsion lingvistik belgilari xususida

Jumanazar O'rozov¹

Abstrakt

Mazkur maqolada sud-tergov jarayoni bilan bog'liq qo'lyozma matnlarning identifikatsion belgilari tahlil qilingan. Xususan, muallifi noma'lum bo'lgan qo'lyozma matnlarni grammatik, leksik-semantik, stilistik xususiyatlari tahlil qilingan. Bugungi axborot olamida qo'lyozma matnning turli qismlarini tahlil qilish orqali matn muallifini aniqlash muammosi tobora ortib bormoqda. Hujjatni o'rganish uchun unga aloqador shaxslar haqida to'liq va ishonchli ma'lumotlar va uning yaratilishi, kompleks yondashuvdan foydalanish zarur. Shundan kelib chiqib, qo'lyozma matnlarni tadqiq qilishda umumiyligi va xususiy identifikatsion belgilarga bo'lib chiqish joizdir. Qo'lyozma matnlarni tadqiq qilishda muallifning psixologik holati, yoshi, kasb turi kabi turli ma'lumotlarni aniqlash imkoniyati birmuncha yuqori. Qo'lyozma matnlarning kriminalistik tadqiqotida yozma nutqning umumiyligi va maxsus belgilari ajralib turadi. Bu esa matn muallifining leksik, grammatik, uslubiy belgi-xususiyatlarini aniqlash va baholash imkoniyatini yuzaga keltiradi. Bu esa ekspertga muallif haqida umumiyligi jihatlarni ochishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: *lingvokriminalistika, identifikatsion belgi, anonim xatlar, grafalogik ekspertiza, yozma nutqning umumiyligi va xususiy belgilari.*

Kirish

Sud-tergov faoliyatida yuzaga keladigan muammoli vaziyatlarga lingvokriminalistik bilimlar orqali yechim topish, fakt va dalillarni asoslashda tilning o'rni g'oyatda yuqori. Sud-tergov jarayoniga aloqador matn bilan bog'liq bo'lgan har qanday ziddiyatli vaziyatlarni, xususan, anonim xatlar, ularda muallif individual belgilarini aniqlash, plagiatlik holatlarini baholash, shuningdek, savdo markalarini lingvistik jihatlariga ko'ra tahlil qilish lingvistik

¹ O'rozov Jumanazar Norqizilovich – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-pochta: jumanazarurazov1992@gmail.com

ORCID ID: 0000-0001-9508-921X

Iqtibos uchun: O'rozov, J. N. 2024. "Sud-tergov jarayoni bilan bog'liq yozma matnlarning identifikatsion lingvistik belgilari xususida". *O'zbekiston: til va madaniyat* 2: 68 – 87.

ekspertizaning muhim vazifalaridan hisoblanadi.

Shu nuqtayi nazardan, qo'lyozma matnlarni tadqiq qilishda muallifning psixologik holati, yoshi, kasb turi kabi turli ma'lumotlarni aniqlash imkoniyati birmuncha yuqori. Qo'lyozma matnlarning kriminalistik tadqiqotida yozma nutqning umumiyligi va xususiy belgilari ajralib turadi. Bu esa matn muallifining leksik, grammatic, uslubiy belgi-xususiyatlarini aniqlash va baholash imkoniyatini yuzaga keltiradi. Bu esa ekspertga muallif haqida umumiyligi jihatlarni ochishga yordam beradi.

Ilmiy-nazariy qarashlar

Yozish mexanizmining o'ziga xos xususiyatlarini o'rGANISH qo'lyozmada sodir bo'ladigan o'zgarishlarning kelib chiqishi, hajmi va xarakterini o'rGANISHDA, uni aniq yozuvchilar tomonidan ongli ravishda o'zgartirish imkoniyatini baholash imkonini beradi. Idrok, xotira, ayniqsa, boshqa shaxsning qo'l yozuvi yoki imzosini taqlid qilish kabi holatlar bilan bevosita bog'liq.

Mutaxassislarning fikriga ko'ra, yozuv orqali "shaxsning rivojlanish darajasi, uning madaniyati, ba'zi bir kasbiy mahorat, moyillik, irodaviy fazilatlar, hissiy ta'sirchanligi, ba'zan, hatto, ijodkorlik, shuningdek, ruhiy me'yordan chetga chiqishi aniqlanadi. Ular qonunga bo'ysunuvchi fuqarolar va jinoyatchilarning qo'lyozuvlarini taqqoslashni shaxsning jinoiy yo'nalishini aniqlashda asosiy vosita deb bilishi bejiz emas" [Наджимов 2001].

XIX asr nemis tadqiqotchisi I.H.Groman esa qo'lyozma matnlari orqali "bo'yni, yoshni, ovozni, ko'z va sochlarning rangini va hattoki yonoqlarning qizarishini ham aniqlash mumkin" degan fikrni ilgari suradi [Xotamova 2021].

Yuqorida aytib o'tganimizdek, qo'lyozma matnlari bilan har xil deviant xulq-atvorni aniqlash mumkin, unga rus tadqiqotchisi V.N.Obrazsov: "Qotillarning qo'lyozmasi bosim zARBining kuchligi bilan iyeroglib yozuviga o'xshash bo'lishi mumkin", deb ta'kidlagan. U qat'iylik, ishonchni kuchaytirganda, hayajon va yozish tezligini egallaydi, chiziqlar uzunlikka yopishadi, so'zlar qo'shilmaydi. Harflar kerak bo'lgandan ancha kattaroq, ba'zan keraksiz darajada ulkan hajmga ega bo'ladi. Chiziqlar yo'nalishi bir tartibda bo'lmaydi [Лесовская 1977].

Mazkur tadqiqot ishi davomida jinoyatning surishtiruv-tergov ishlariga oid ko'plab hujjatlarini o'rganib chiqib, shunday xulosa keldikki, hozirgi kunda qo'lyozma matnlari vositasida matn muallifiga doir quyidagi ma'lumotlarni aniqlash kabi masalalar zamонавиy

tilshunoslik oldida turgan muhim vazifalardan biri sifatida e'tirof etilmoqda:

1. Qo'lyozma matnidan muallifining yoshini aniqlash;
2. Qo'lyozma matnidan muallifining jinsini aniqlash;
3. Qo'lyozma matnidan muallifining qaysi hududga mansubligini aniqlash.
4. Qo'lyozma matnidan muallifining kasbi va xarakter xususiyatlari aniqlash.

Bu o'rinda shuni alohida ta'kidlash kerakki, shu yo'naliishda lingvokriminalistikaga oid bir qancha tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jahon tilshunosligida, xususan, Yevropa va AQSHda yozuv xususiyatlari bilan bir qatorda, uning leksik-semantik, grammatik va uslubiy xususiyatlariga ham urg'u beriladi.

O'tgan asrning 70-yillaridan boshlab ushbu sohaga e'tibor kuchayib, buning natijasi o'laroq, matnni grafologik tahlil qilish uchun kompyuter dasturlari ishlab chiqila boshlandi. Bu esa grafologiyaning jamiyatdagi o'rni naqadar muhimligi va inson shaxsini, uning individual xususiyatlari aniqlashga xizmat qiluvchi asosiy vosita ekanligini ko'rsatadi.

O'zbek tilshunosligida esa yozuvga qarab inson shaxsini aniqlash bilan bog'liq ilmiy ishlar deyarli kam darajada. Bu esa, amaliyotda huquqni himoya qiluvchi mutaxassislarga katta qiyinchilik tug'dirmoqda.

Aytish mumkinki, bahsli matnni o'rganish jarayonida ekspert tomonidan aniqlangan yozma nutqning umumiyligi xususiyatlari va shubha qilingan shaxslarning yozuvlari namunalari muallifni qidirish doirasini toraytirish imkonini beradi. Matnnning ma'lum bir muallifini har xil ehtimollik darajasida va ba'zi hollarda, hatto kategorik shaklda hukm qilish uchun taqqoslangan qo'lyozmalarda yozma nutqning o'ziga xos xususiyatlari to'plamini aniqlash kerak. Har bir shaxs (muallif, ijrochi) uchun bu belgilar sifat jihatidan farq qiladi. Ular turli odamlarning qo'lyozmalarida doimiy leksik va grammatik xatolar ko'rinishida paydo bo'ladi [Homewood, Oleksow, Leaver 1998].

Leksik xatoliklarga quyidagilar kiradi: so'zlarning ma'nosi ni noto'g'ri tushunish tufayli noo'rin qo'llash, so'z boyligining kamligi sababli bir xil so'zlarni takrorlash, mazmuni aniqlanmaydigan ortiqcha, muqobil so'zlardan foydalanish, frazeologik birliklarni noto'g'ri ishlatish kabilalar.

Grammatik xatoliklarga quyidagilar kiradi: turli grammatik shakllarni noto'g'ri ishlatish, turli og'zaki shakllarni aralashtirish,

olmoshlarni noo'rin ishlatish gapning noaniq talqin qilinishiga olib keladi, kesim, ergash gap, qo'shma gaplarni noto'g'ri ishlatish; bevosita va bilvosita nutq shakllarini aralashtirish, so'z va iboralar ni o'tkazib yuborish, jumladagi noto'g'ri so'z tartibi hamda ayrim so'zlarni yozishda bir xil imlo xatolariga yo'l qo'yish, shuningdek, tinish belgilaring takroriy qo'llanilishi kabilar.

Lingvokriminalistik ekspertizaning sifatli o'tkazilishida uning identifikatsion belgilari juda muhim o'rinn tutadi. Ilmiy adabiyotlarda ushbu masalaga oid turlicha qarashlar mavjud. Jumladan, A.N.Baranov matnlarni tadqiq etishda quyidagi identifikatsion belgilarni qayd etib o'tadi:

- qo'lyozma matnning dinamik harakati belgisi (harakatning yo'nalganligi, belgilarning individualligi);
- fonetik (shu jumladan, fonologik va fonoskopik);
- morfologik;
- sintaktik belgisi [Баранов 2011].

Qo'yozma matnlar yoki ulardag'i alohida so'zlarning ma'nosini aniqlash, shuningdek, bir nechta matnlarni bir-biri bilan ma'no jihatidan solishtirish talab qilinadigan holatlarda semantik tahlil muhim o'rinn tutadi. Ekspertizaga yozma shakldagi matn (asl nussada yoki xomaki nusxada) taqdim etiladi. Bahsli matnda ma'lum bir ma'noning mavjudligini aniqlashda tilshunoslik fanining quyidagi fundamental qoidalariga asoslanadi: yozma matn (yoki uning bo'lagi - abzas, nuqta, gap, ibora) ma'nosida tuzilgan til birliklari – so'zlar, grammatik elementlar, sintaktik qu'rilmalarning mazmuni, og'zaki matnda esa intonatsiya konstruktchalari asosida shakllanadi. Umuman olganda, matnda ma'lum bir ma'noning bor yoki yo'qligini aniqlashda foydalilanildigan eng muhim ma'lumot manbalari so'z ma'nolarini ifodalovchi lug'atlar va grammatik shakllar, sintaktik va intonatsion tuzilmalar ning ma'nolarini ifodalovchi birliklar tashkil etadi.

Matndagi tahlil qilishda mutaxassis-tilshunoslari lug'at va grammatik til birliklari hamda ularning asosiy ma'nolarini belgilaydigan quyidagi muhim bir qoidani inobatga olishi zarur:

1. Matndagi so'zning ma'nosini faqat lug'atdagi so'zga berilgan ma'nonigina emas, balki berilgan matndagi so'z anglatayotgan obyekt yoki voqelik hodisasi haqidagi ma'lumotlarni ham o'z ichiga olgan bo'lishi mumkin. Bunda ma'lum bir so'z va uning ma'lum bir madaniyatga xos ma'nosini bilan bog'liq bo'lgan g'oyalar, baholashlarni ham hisobga olish zarur;
2. Gapning mazmuni so'z, grammatik morfemalar, sintaktik

va intonatsion konstruksiyalar ma'nolarining yig'indisigina emas, balki gapning kommunikativ o'zaro ta'sir tarkibida bajaradigan vazifasidir;

3. Matn ma'nosi uni tashkil etuvchi jumlalar ma'nolarining oddiy yig'indisi emas, chunki u izchil matndagi alohida gaplar, iboralar va so'zlar o'ttasida yuzaga keladigan semantik munosabatlarni (sabab, shartlilik, bir vaqtalik, ketma-ketlik, bog'lovchilar, so'z birikmalari) ham o'z ichiga olgan bo'lishi mumkin;

4. Ma'no, mazmun matnda aniq va yashirin shaklda bo'lishi mumkin.

Ta'kidlash lozimki, yuqorida aytilganlarning barchasini hisobga olgan holda, o'rganilayotgan matnda ma'lum bir ma'nining mavjudligi yoki yo'qligi aniqlanganda, ekspert ushbu matnda muhokama qilinadigan vaziyat haqida barcha zarur faktik ma'lumotlarga ega bo'lishi kerak.

Matn muallifini aniqlash holatlarida

Bunda qo'lyozma matnning mazmunini tahlil qilish bilan uning muallifining alohida guruhga mansubligi masalasini hal qilib olish zarur bo'ladi. Masalan, hujjatdagi matn qaysi millat tilida yozilganligiga qarab muallifga nisbatan bu til ona tili yoki boshqa xorijiy til ekanligini aniqlash mumkin. Shundan kelib chiqib, matn muallifini aniqlash bo'yicha lingvokriminalistik tadqiq jarayoni quyidagi ikki bosqichdan iborat bo'ladi:

1. Ekspertizaga yuborilgan material bilan tanishib chiqib, qaror (ajrim)da belgilangan tadqiqot vazifasi, tekshiruv obyektlarining soni, sifati yetarli va yaroqli ekanligi aniqlanadi;

2. Tekshiriluvchi va namuna obyektlarning har biri alohida ko'zdan kechirilib tahlil qilinadi, ulardagi nutq xususiyatiga tegishli bo'lgan sifat belgilari: leksika, sintaksis, jumla tuzish va fikrni yozma shakllantirishning o'ziga xosligi aniqlanadi.

Qo'lyozma matnda mualliflar soni qancha bo'lsa, har birining xat namunalari alohida-alohida guruhga ajratilib, alohida qiyoslanib tadqiq etiladi. Solishtirib tekshirish natijasida ma'lum belgi-xususiyatlarining o'xshashligi yoki qarama-qarshilik holatlari asosida tegishli xulosalarning asoslari shakllanadi. Tekshiriluvchi muallifning identifikatsiyasi yoki uning ma'lum bir guruhga oidligi (ma'lumoti, saviyasi, mutaxassisligi va boshqa xususiyatlari) ga ko'ra baholanib xulosa qilinadi.

Yozma nutqning identifikatsion belgilari

Bugungi rivojlanayotgan axborot texnologiyalari olamida qo'lyozma matnning turli qismlarini tahlil qilish orqali matn muallifini aniqlash muammosi tobora ortib bormoqda. Hujjatni o'rganish uchun unga aloqador shaxslar haqida to'liq va ishonchli ma'lumotlar va uning yaratilishi, kompleks yondashuvdan foydalanish zarur.

Shundan kelib chiqib, qo'lyozma matnlarni tadqiq qilishda umumiyl va xususiy identifikatsion belgilarga bo'lib chiqish joizdir. Bular quyidagilardir:

Yozma nutqning umumiyl belgilari

Eng umumiyl belgi yozma nutqni bilish darajasi hisoblanadi. Fikrlarni bayon qilish, ularning mantiqiyligi, savodxonlik darajasi, bayon etish usuliga ko'ra yozma nutqni bilish darajasining uch darajasini ajratish mumkin: yuqori, o'rta va past.

Yozma nutqni bilishning yuqori darajasiga fikrlarni bayon etishning mantiqiy ketma-ketligi va fikrlarning chuqurligi, eruditsiya, yuqori so'z boyligi va yuqori darajadagi savodxonlik kiradi.

Yozma nutqni bilishning o'rta darajasi stilistik, leksik va grammatik ko'nikmalarin yetarlicha rivojlanmaganligi, asosiy fikrlarning mantiqiy ketma-ketligi va bayon etishning unchalik rivojlanmaganligi, fikrlarni bayon etishda kundalik so'zlashuv usulidan ko'proq foydalanish bilan ifodalanadi.

Yozma nutqni bilishning past darajasi mantiqiy ketma-ketlikning yo'qligi, fikrlarni to'la yoritib berolmaslik, so'z boyligining kamligi, past savodxonlik darajasi bilan ifodalanadi.

Yozma nutqni bilish darajasini ko'rsatkichi bo'lib, quyida uch turdag'i ko'nikmalarning rivojlanish darajasi hisoblanadi: grammatik, leksik va stilistik ko'nikmalar.

1. *Yozuv grammatik ko'nikmasining rivojlanish darajasi* muayyan bir tilda, yozuv qoidalarini egallaganlik darajasi bilan bog'liq. Grammatik ko'nikmalarning umumiyl darajasiga odamning qobiliyati, muktabda o'qitish metodikasi, ma'lumotining darajasi, umumiyl madaniyati ta'sir ko'rsatadi.

Grammatik ko'nikmalarning rivojlanish darajasi orfografik, punktuatsion va sintaktik xatolarning miqdori bilan aniqlanadi hamda yuqori, o'rtacha va past darajalarga bo'linadi.

Grammatik ko'nikmalarning yuqori rivojlanish darajasi, qo'lyozmaning hajmiga ko'ra quyidagilar bilan ifodalanadi:

- xatolarning yo'qligi;
- bir-ikki unchalik qo'pol bo'lмаган орфографик ёки пунктуацисион xатоларнинг мавжудлиги;
- bir-ikki sintaktik xatolarning mavjudligi.

Grammatik ko'nikmalarning o'rtacha rivojlanish darajasi qo'lyozmada quyidagilarning mavjud bo'lishi bilan ifoadalanadi:

- to'rttadan ko'p bo'lмаган qo'pol орфографик ёки пунктуацисион xатолар; ёки bo'lmasa uch-beshta орфографик ёки пунктуацисион xатолар;
- uch-besh sintaktik xatolar.

Grammatik ko'nikmalarning past rivojlanish darajasi qo'lyozmada oltita ёки undan ko'proq орфографик ёки пунктуацисион xатолар hamda olti ёки undan ko'proq sintaksik xatolar mavjud bo'lishi bilan ifodalanadi.

Qo'lyozmalardagi xatolarning turlari:

- орфографик - bosma harflar va so'zlarda harflarni yozish qoidalarining buzilishi;
- пунктуацисион - tinish begilarini ishlatish qoidalarining buzilishi
- синтаксик - ibora va gaplarni tuzish qoidalarining buzilishi.

Maktab o'quvchilarining yozma ishlarini baholash me'yorlaridan kelib chiqib, ommalashgan (aniq) yozuv qoidalarini buzish va tekshirish qiyin bo'lмаган xatolar qo'pol xatolar deb hisoblanadi.

Grammatik ko'nikmalarning rivojlanish darajasi odatda qo'lyozma muallifini emas, balki uning ijrochisini aniqlashda ishlatiladi.

2. *Yozuv leksik ko'nikmasining rivojlanish darajasi* – ya'ni odamning so'z boyligi. Har bir odam, butun umri davomida shakllanadigan va u yashab turgan ijtimoiy muhit, odamning madaniy va kasbiy darajasi, mutaxassisligi, yashash joyi va shu kabilarga bog'liq bo'ladi muayyan so'z boyligiga ega bo'ladi.

Har bir til ishlatish sohasiga ko'ra ikki guruhga ajraladi: umum ishlatiladigan so'zlar va cheklangan darajada ishlatiladigan so'zlar, ya'ni muayyan bir guruhdagi odamlar orasida ishlatiladigan so'zlar.

Odamning so'z boyligi keng (boy leksika) va cheklangan (kambag'al leksika) bo'lishi mumkin.

Leksikaning o'ziga xosligi cheklangan tarzda ishlatiladigan so'zlar bilan aniqlanadi:

- dialektizmlar – birorta mahalliy shevadan olingan so'zlar;
- professionalizmlar – birorta kasb bilan o'zaro birlashgan

jamoa tomonidan ishlataladigan so'zlar;

- argotizmlar – boshqalardan maxsus ma'nodagi so'zlari va iboralari bilan farq qiluvchi muayyan ijtimoiy guruh a'zolarining jargon so'zlari, iboralari va nutqi;
- vulgarizmlar – adabiy tilga xos bo'lмаган so'zlar;
- arxaizmlar – eskirgan, foydalanishdan chiqib ketgan so'zlar;
 - neologizmlar – nutqda yaqinda paydo bo'lgan va so'z boyligiga hali kiritilmagan so'zlar. Vaqt o'tishi bilan neologizmlar umumiylishtiladigan so'zlarga aylanib qoladi;
 - ekzotizmlar – xorijiy kelib chiqishga ega so'zlar;
 - varvarizmlar – xorijiy so'zlar; ekzotizmlardan birorta tilida (masalan, o'zbek tilida) aniq so'zlar mavjud bo'lgan tushunchalarini ifodalashi bilan farq qiladi. Qo'lyozmalarda varvarizmlar, qaysi tilga tegishli bo'lsa, shu tildagi harflar bilan yoziladi.
- frazeologizmlar – barqaror so'z birikmalari;
- parazit so'zlar – ma'no jihatdan keraksiz va maqsadsiz bir necha marta takrorlanadigan so'zlar.

3. *Yozuv stilistik ko'nikmasining rivojlanish darajasi* – ushbu belgi fikrlarni bayon qilish tili va yozma nutqning umumiylishtilishi bilan ifodalananadi.

Har bir millatning tili funksional stil (uslub)larga bo'linadi. Funksional uslublar quyidagilarga ajraladi: so'zlashuv-kundalik, rasmiy-ishga oid, ilmiy, ishlab chiqarish-texnik, publisistik uslublar.

Odam o'z milliy tili uslubining, o'zining individualligi, psixofiziologik xususiyatlari, jamoatchilik, mehnat va shaxsiy hayotiga ko'proq mos keladigan qismini ko'proq ishlataladi.

Individual uslub – bu har bir odamga xos bo'lgan yozma nutqning, muayyan til vositalaridan foydalanish ko'nikmalarini aks ettiruvchi belgilari yig'indisidir. Har bir odamning individual uslubi quyidagi aniq belgilarni ifodalaydi:

1. Arxitektonika – yozma nutqning qo'lyozmadagi umumiylishtilishi, ya'ni mantiqiy ketma-ketlik, qo'lyozmaning barcha tarkibiy qism (kirish, asosiy qism va xulosa)lari orasidagi o'zaro bog'liqlik va o'zaro munosabat. Arxitektonika ko'nikmalarini o'z fikrlarini to'g'ri, tartib bilan va o'zaro bog'liqlikda bayon etish qobiliyati bilan namoyon bo'ladi. Ekspert xulosasida arxitektonikaning xususiyatlari quyidagicha ta'riflanadi: "fikrlar to'g'ri, mantiqiy va tartib bilan bayon qilingan".

2. Xatboshi (abzas)ning mavjudligi yoki yo'qligi yozuvning mazmunini ifodalaydi. Qo'lyozmada abzaslarning miqdori, abzasda-

gi gaplarning miqdori (abzas o'lchami), abzaslarni ajratib ko'rsatish usuli aniqlanadi.

3. Gaplarning uzunligi. Gaplarning uzunligi so'zlarning miqdoriga ko'ra aniqlanadi: kichik gap – oltitagacha so'z, o'rtacha gap – oltidan o'ttiztagacha so'z, katta gap – o'ttizdan ortiq so'zlar.

4. Gaplarning ko'p uchraydigan tipi. Gaplar tipiga ko'ra quyidagicha bo'lishi mumkin: soddalashtirilgan tuzilishli, oddiy tuzilishli (*oddiy darak gap*), murakkab tuzilishli (*ergash gapli qo'shma gap, bog'langan qo'shma gaplar*), murakkab konstruksiyalı (*kirish so'zlari hamda sifatdosh va ravishdoshlar ishtirokida tuzilgan qo'shma gaplar*).

5. Simvollar, qisqartirish usullari, tuzatishlarning mavjudligi. Simvollar – alohida so'z yoki so'z birikmalarini ifodalovchi shartli grafik belgilar.

Qisqartirishlar quyidagicha bo'lishi mumkin:

- qisqartma (abbreviatura)lar – so'zlarning birinchi harflaridan foydalanish (IIV, EKM);
- bo'g'inli – bo'g'inlar bo'yicha qisqartirish (profkom);
- qisqa so'zlar – birinchi so'z qisqartirilgan, ikkinchi so'z to'liq (pedinstitut, fotoreaktiv);
- mualliflik qisqartirilishi – qoidalarga belgilanmagan tarzda qisqartirish. Aynan shu kabi qisqartirishlar katta identifikatsion ahamiyatga ega bo'ladi.

Tuzatishlar harflarda, harflarning usti yoki ostida yoxud noto'g'ri yozilgan harf yoki so'zni chizib o'chirish ko'rinishida va hokazo bo'lishi mumkin.

6. Urg'u berish usullari, ya'ni muallifning fikricha, qo'l-yozmadagi asosiy fikr yoki so'zlarni ajratib ko'rsatish usullari:

- tagiga chizish (bir yoki ikkita chiziq bilan, boshqa rangdagi bo'yovchilar bilan);
- maxsus shrift bilan ajratish, harflarni orasini ochib yozish (razryadka);
- so'roq, undov belgilari, ko'p nuqtalar, qavslar va shu kabilarni ishlatish;
- harflarni qiylanish (og'ish)ining, alohida so'zdagi harflarning o'lchamini o'zgartirish.

Yozma nutqning xususiy belgilari

Har bir odam uchun ushbu belgilari o'ziga xos bo'ladi va o'zaro farq qiladi:

1. Muntazam takrorlanadigan (ikki yoki undan ko'p marta)

xatolar: grammatik (orfografik, punktuatsion, sintaksik) va leksik xatolar.

2. Mualliflik leksikasi – qo'lyozmada muayyan maxsus so'zlar: dialektizlar, professionalizmlar, argotizmlar va shu kabilardan foydalanish.

3. Urg'u berish ko'nikmalari – qo'lyozmadagi muntazam takrorlanadigan (ikki yoki ko'p marta) urg'u berish usullari.

4. Simvollar, qisqartirish usullari, tuzatishlardan foydalanish ko'nikmalari – muntazam takrorlanadigan (ikki yoki ko'p marta) simvollardan foydalanish, qisqartirish yoki tuzatish usullari.

Yozuv materiallarining hajmi ko'p bo'lsa, tadqiqotlarni yozma nutq belgilarini o'rganishdan boshlash lozim. Ushbu belgilar, qo'lyozma matnlarda odatda yozuv belgilar bilan birgalikda foydalaniladi, ammo yozma nutq belgilar bo'yicha identifikatsion masalalarni, ayniqsa, diagnostik masalalarni, ya'ni yozuv ijrochisining jismoniy, ruhiy holatini, uning yoshini, jinsini aniqlash mumkin bo'ladi. Ba'zida yozma nutq belgilar bo'yicha situatsion masalalarni ham hal etish – tekshirilayotgan qo'lyozma bajarilgan sharoitlarni aniqlash mumkin bo'ladi.

Tashqi va ichki omil

Qo'lyozma matnlar ekspertizasida, har bir element alohi-da rol o'ynaydi. Bu jarayonda nafaqat lingvistik bilimlarni amali-yotga tatbiq etish lozim, balki yozuv quroli va shart-sharoiti kabi masalalarga oydinlik kiritish uchun fizika yoki kimyoga oid bilimlarni ham qo'llash lozim. Bu esa, o'z navbatida, matn muallifini aniqlashga yordam beradi. Qo'lyozma matnlar yozilishida ikki asosiy omil muhim rol o'ynaydi. Biri inson omili bo'lsa, ikkinchisi tashqi omil sanaladi. Inson omili deganda, matn kim tomonidan yozilganligi, kim tomonidan buyurtma berilganligi, muallifning ijtimoiy-ruhiy holati kabilalar nazarda tutilsa, tashqi omillar atrof-muhit, iqlim sharoiti kabilarni ifodalashi mumkin. Umuman olganda, matn yozilishi jarayoniga insonning bilim darajasi, atrof-muhit, ijtimoiy munosabatlar, psixologik va kognitiv qobiliyatlar, jismoniy va ruhiy holat (charchoq, uyqusizlik, asabiylik, hayajon, shoshqaloqlik) o'z ta'sirini ko'rsatadi [Musulmonova 2021, 229]. Shu o'rinda aytish kerakki, har bir shaxs individual xususiyatga ega va uning yozuvi orqali yoshi, jinsi, pragmatik holati, jismoniy holati kabilalar ham aniqlanadi.

Bizning fikrimizcha, yozma matnlarning xilma-xilligi, mazmuniy rang-barangligiga qaramasdan, ularni o'rganish davomida quyidagi muhim vazifalar hal qilinadi:

1. Hujjatni ashyoviy dalil sifatida aniqlash va olib qo'yish faktini to'g'ri protsessual ro'yxatdan o'tkazish;
2. Hujjatning tavsifi, fotosurati va video, raqamli skanerlash;
3. Asosiy xususiyatlarni aniqlash (tanlash, baholash) hujjatning: uning turi (xususiy, rasmiy), maqsadi, kelib chiqishi, mansubligi, rekvizitlarning mavjudligi, hujjat shakli va mazmuni, tashqi ko'rinishi va holatiga muvofiqligi;
4. Harflarning joylashuv xususiyatlarini aniqlash (joylari butun matn yoki uning alohida qismlari);
5. Qo'lyozma matnlarning umumiy xususiyatlarini aniqlash.

Yozma matnlarni lingvokriminalistik ekspertiza qilish jarayonida sotsiolingvistik jihatdan yondashish ham alohida ahamiyat kasb etadi. Bir ijtimoiy guruhga mansub kishilarda takrorlanuvchi elementlar ko'p bo'ladi. Bu elementlar leksik qatlamda, sintaktik konstruksiyalarda namoyon bo'ladi.

Bu matn qismlaridagi harflarning shakli xususiyatlarini aniqlashdan boshlanadi. Shakli xususiyatlari sifatida quyidagilarni keltirib o'tish mumkin:

- satr hajmi va so'zlar oralig'i;
- yozuv dinamikasi: gorizontal, ko'tariluvchi, pasayuvchi, to'g'ri chiziqli, qavariq, pog'onali;
- tinish belgilari va tirening joylashuvi;
- harf elementlarining qo'llanilishi;
- harflar o'lchami (katta, o'rta, kichik va o'ta kichik shriftda yozilganligi).

Satr hajmi va so'zlar oralig'i ham muallif haqida muhim ma'lumot beradi. Odatda, tezlikda yozilgan matnlarda satr hajmi va so'zlar oralig'i ancha tig'iz joylashgan bo'ladi. Bu holat kishining markaziy nerv sistemasi bilan bog'liq ravishda ham amalga oshadi. Jahldor, g'azabi tez odamlar yozuvida so'zlar oralig'i juda qisqa va tig'iz bo'ladi. Kishining bilim darjasи, ijtimoiy muhit va tashqi omillar natijasida muayyan yozuv dinamikasi paydo bo'ladi.

Bundan tashqari, xatshunos olim L.Mixelning fikricha, lingvokriminalistik tadqiq jarayonida qo'lyozma matnlarning umumiy xususiyatlarini aniqlashda quyidagilarga alohida e'tibor qaratish lozim:

1. Yozuv tezligi, harakatlarning o'ziga xosligi va ularni muvofiqlashtirish orqali muallifning yozuvdan foydalanish qobiliyatini baholash;
2. Yozuvning sodda yoki murakkab elementlardan tuzilganligiga e'tibor qaratish. Ayrim yozuvlarda elementlar muallif

tomonidan murakkablashtiriladi. Biroq har qanday soxta elementlar aralashtirilgan matnda ham yozuv muallifining muayyan jihatini ko'rsatib beruvchi tabiiy belgilar saqlanib qoladi;

3. Matnda harakat yo'nalishi umumi shaklining to'g'ri, yumaloq, burchakli, yoysimon shaklda ekanligiga e'tibor qaratish;

4. Asosiy harakatlarning yo'nalish nuqtasini aniqlash. Ayrimlarda o'ng tarafga, boshqalarda chap tarafga, yoki yuqoriga harakatlangan yozuv shakli mavjud bo'ladi;

5. Yozuv hajmi katta (5 mm dan ortiq, o'rtacha – 2-5 mm, kichik – 2 mm dan kam) bosim (kuchli, o'rta va kuchsiz);

6. Harakatlarning nisbati, harakatlarning lokalizatsiya-si (harakat qayerdan boshlanib, qayerda tugashi, bosim kuchi va harakat tezligi);

7. So'zlarning chastotasi, bo'shliqning mavjudligi [Михель 1982, 25].

Bizning fikrimizcha, qo'lyozmaning umumi va alohida belgilarini tahlil qilish orqali qo'lyozma ijrochisining individual xususiyatlarini aniqlash mumkin.

Grafalogik ekspertiza

